

**VALSARTAN, ASKORBIN KISLOTASI VA KOENZIM 10
SUBSTANSIYALARNING TEXNOLOGIK KO'RSATKICHLARINI O'RGANISH****Vaxidova N.M.¹****Maksudova F.X.²**

Toshkent farmasevtika instituti, Toshkent shahri, O'zbekiston

e-mail: dr.vaxidovanm@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17323822>

Dolzarbli: Kombinirlangan dori vositalarining asosiy ahamiyati – davolash samaradorligini oshirish, qabul qilish tartibini yengillashtirish orqali bemorning holatini yaxshilash va tarkibidagi har bir necha xil komponentlarning kichik dozalari hisobiga nojo'ya ta'sirlar xavfini kamaytirishdir. Ayniqsa, arterial gipertenziya yoki qandli diabet kabi surunkali kasalliklarda bir nechta faol moddani bitta dori shaklida birlashtirish alohida dolzarbdir.

Ishning maqsadi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, valsartan, askorbin kislotasi va koenzim 10 substansiyalarning texnologik xossalarini aniqlash maqsad qilib belgilandi.

Material va usullar. Qattiq dori shakllari texnologiyasini ishlab chiqishda substansiyalarning texnologik xossalarini o'rganish katta ahamiyatga ega. Aynan shu (fraksion tarkib, sochiluvchanlik, sochilma zichlik, tabiiy og'ish burchagi, zichlanish koeffitsiyenti, presslanuvchanlik, qoldiq namlik) ko'rsatkichlar aniqlash O'zR DF I-jild va DF XIV nashri (RF) da belgilangan usullar bo'yicha amalga oshirildi. Sinovlar besh marta o'tkazildi va o'rtacha qiymatlar hisoblab chiqildi.

Natija va muhokamalar. Valsartan, askorbin kislotasi va koenzim 10 substansiyalarning texnologik xossalarini aniqlash natijalari jadvalda keltirildi.

Valsartan, askorbin kislotasi va koenzim 10 substansiyalarning texnologik xossalarini aniqlash natijalari

№	O'rganilgan ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Substansiyalar		
			Valsartan	Askorbin kislotasi	Koenzim 10
1	Fraksion tarkib: +1000 mkm -1000+500 mkm -500+250 mkm -250+160 mkm -160 mkm	%	16,21 39,33 26,15 12,23 5,98	17,23 48,26 22,15 10,41 1,95	16,17 40,8 28,36 9,72 4,95
2	Vibrotebranish bilan sochiluvchanlik	10 ⁻³ kg/s	0,821±0,021	1,23±0,11	0,938±0,018
3	Vibrotebranishsiz sochiluvchanlik	10 ⁻³ kg/s	1,32±0,18	0,89±0,09	0,92±0,08
4	Sochiluvchan zichlik	sm ³	168,13±11,9	216,12±12,2	176,12±19,6
5	Tabiiy og'ish burchagi	gradus	61,82±2	58±4	48,11±3
6	Presslanuvchanlik	N	53,0	63,0	78,0
7	Zichlanish koeffitsiyenti		3,11±0,06	5,42±0,02	4,38±0,08
8	Qoldiq namlik	%	2,7	3,9	2,44

Xulosa: Valsartan, askorbin kislotasi va koenzim 10 substansiyalarning texnologik ko'rsatkichlarni salbiy ekanligi aniqlandi. Demak, qattiq dori shakli olish uchun yordamchi moddalar foydalanish lozimligi maqsad qilib olindi.